

UO'K 634/338:6P8

**RESPUBLIKAMIZDA MEVA -SABZAVOT KLASTERLARINI
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПЛОДООВОЩНОГО КЛАСТЕРА В НАШЕЙ
РЕСПУБЛИКЕ**

THE SIGNIFICANCE OF DEVELOPING FRUIT AND VEGETABLE

CLUSTER IN OUR REPUBLIC

Yuldasheva Hafizaxon Abdurahim qizi

Ro'ziyev Qo'shaqboy Hasanboy o'g'li

Юлдашева – дочь Хафиза-хана Абдурахима.

Розиев – сын Кошакбая Хасанбая.

Yuldasheva Hafizaxon Abdurahim qizi

Roziyev is the son of Koshaqboy Hasanboy

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda meva-sabzavot klaster mexanizmining ahamiyati tadqiq etilgan. Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda klaster mexanizmi taqdim etadigan imkoniyatlar va afzalliklar ko'rsatilgan.

Аннотация: В статье рассматривается значение механизма плодоовощного кластера в повышении конкурентоспособности нашей экономики сегодня. Показаны возможности и преимущества, предоставляемые кластерным механизмом в формировании конкурентоспособной экономики.

Annotation. The article examines the importance of the fruit-vegetable cluster mechanism in increasing the competitiveness of our economy today. The opportunities and advantages provided by the cluster mechanism in the formation of a competitive economy are shown.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, klaster, xorijiy tajriba, meva-sabzavot, mexanizm, fermer xo'jaligi, mahsulot, saqlash va qayta ishlash.

Ключевые слова: конкурентоспособность, кластер, зарубежный опыт, плодоовощная продукция, механизм, ферма, продукт, хранение и переработка

Key words: competitiveness, cluster, foreign experience, fruits and vegetables, mechanism, farm, product, storage and processing.

Mamlakatimiz meva-sabzavotchilik tarmog'i ham katta salohiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda yiliga 2022- yil yanvar-dekabr oylarida barcha xo'jaliklarda yetishtirilgan meva va rezavorlar 2 983,5 ming tonnani, yoki 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 104,5% ni tashkil etadi.. Lekin oldimizda bir muammo turadi, bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan mahsulot

yetishtirmayotganimiz. Bog‘ va tokzorlarda hosildorlik past. Masalan, xorijiy davlatlarda bir gektar intensiv bog‘dan 70-100 tonna, ayrim mevalardan 130 tonnagacha hosil olinsa, yurtimizda bir gektardan 10-30 tonna, an‘anaviy bog‘-tokzorlarda esa 4-5 tonna mahsulot olinadi. Davlatimiz rahbari shu bois meva-sabzavotchilikda ham klaster tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligini ta‘kidlab o‘tgan. Sohada ko‘p yillik tajribaga ega, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi bor tadbirkorlarni bunga jalb qilish yaxshi samara berishi qayd etildi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi uning raqobatbardoshligiga, modernizatsiyalashni amalga oshirishga bevosita bog‘liqdir. Modernizatsiyalash, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligining istiqbolli raqobatbardosh modelini yaratish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarida faoliyat yuritayotgan turli xo‘jalik yuritish sub‘ektlari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, uning maqbul ijtimoiy tarkibi va qishloq xo‘jaligi sub‘ektlarini bozor tamoyillariga mos tashkiliy turlarini shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu yo‘nalishda agroklasterni O‘zbekistonda barpo etish muhim omil hisoblanadi. Shu sababdan respublika sharoitida yangi institutsional tuzilma hisoblangan agroklasterning nazariy, uslubiy jihatlari va xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish muhim omil hisoblanadi. Klaster atamasi (ingliz tilidan «cluster» so‘zini tarjima qilinganda) bir qancha bir xil elementlarning birlashuvi, to‘planishi, guruh ma‘nolarida va ma‘lum darajada o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil birlik tushuniladi. U dastlab matematikada va, aksariyat, tabiiy fanlarda ishlatilgan. 1970 yillarda iqtisodiyotda shved iqtisodchilari K. Fredriksson va L. Lindmarklar chegaralangan hududda korxonalarning to‘planishini belgilashda bu atamadan foydalanganlar. Ilmiy jarayonga 20-asrning 80-yillarida M. Porter tomonidan klaster atamasi iqtisodiy kategoriya sifatida kiritilgan. Uning fikricha, klaster – ma‘lum sohada faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniya va institutlarning geografik jihatdan tarmoqlararo birlashuvi hisoblanadi. Agroklasterning mohiyati A.A.Nastin tomonidan atroflicha asoslangan: –agroklasterni bir vaqtda va o‘zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof-muhitni himoya qilishda birlashish maqsadida geografik jihatdan bir joyda joylashgan, o‘zaro bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi, turli mulk egalari – oilaviy ferma, fermerlarning kooperativ korxonalari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta‘lim muassasalari va maslahat xizmatlaridan iborat bozor sub‘ektlari tizimidan¹ iborat.

Xorijiy fermer xo‘jaliklari faoliyatini o‘rganish asosida klaster usullaridan foydalanish yirik fermer xo‘jaliklari uchun muqobil yo‘l hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligidagi klaster usuli bu agroklasterni bo‘lib, agroklasterni – qishloq xo‘jaligining davlat – ilmiy-tadqiqot – qayta ishlash – biznes kabi sub'ektlarning o‘zaro bozor tamoyillariga mos munosabatlarini mujassamlashtirgan sub'ekt hisoblanadi. Agroklasterni uch xususiyatga asoslanadi, ya'ni:

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha hududiy ixtisoslashuv va mahalliyashtirish;

¹ Настин А.А. "Формирование агропромышленного кластера в регионе", 2011

- tarmoqning xo‘jalik yurituvchi sub'ektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar;
- turli tarmoqlar o‘rtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik o‘zaro aloqalarning shakllanganligi.

1-jadval

Agroklasterlarning umumiy xususiyatlari²

Ko‘rsatkichlar	Mazmuni
Tashkil etishdan maqsadi	Innovatsiya aloqalarini rivojlantirish, ixtisoslashuvi va joylashuvi orqali bozor sub'ektlarini bir-birlariga yaqinlashishlari evaziga alohida tarmoqlar yoki mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish
Aloqalarning turlari va xususiyatlari	Vazifalari, bozor, mintaqaviy va tarmoqlar o‘rtasida
Samarali tizimning shakllanishi (usullari)	Bozor munosabatlari va mexanizmlari ta’sirida, davlat-xususiy korxonalar hamkorligini maqsadli tashkil etish, agroholdinglar va qo‘shma korxonalar hamda alohida iqtisodiy hududlar tuzish
Iqtisodiy asosi	Innovatsion ishlab chiqarish, texnoparklar, yagona texnologik jarayonlarga ega bo‘lgan ishlab chiqarish va tarmoqlar
Institutsional xususiyatlari	Davlat strategiyasi ob’ekti, shu jumladan, innovatsiya sohasida
Tashkil etish va boshqarish usullari	Strategik va indikativ rejalashtirish, maqsadli-dasturiy yondashuv, loyiha usullari
Nazariy asoslari	M.Porter raqobat nazariyasi, tizimli indashuv asoslari, –o‘shish doirasi kontseptsiyasi va boshqalar
Iqtisodiy tizimi	Bozor iqtisodiyoti
Chegaralari	Belgilangan hududi chegaralanmagan, analitik usullar orqali aniqlanadi

Agroklasterning markazi strategik o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida shartnoma asosida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, turli xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma tashkilotlari, mahsulotlarni sotish, reklama qiluvchi marketing xizmatini o‘z atrofida birlashtirgan qayta ishlovchi korxonalar bo‘lishi mumkin. Agroklaster mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlari (tuman hokimligi), qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (tuman fermerlar kengashi va dehqonlar), qayta ishlovchi korxonalarning o‘zaro hamkorlikdagi yoki alohida tashabbusi bo‘yicha tashkil etiladi. Uni tashkil etishning muhim jihatlaridan biri ishtirokchilarining birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini – ishlab chiqarish – qayta ishlash – sotish – ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan hamkorlikdagi loyihalarni amaliyotda qo‘llash orqali bir-birlariga ishonchlarining yuqoriligi hisoblanadi.

Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishning mavsumiylik xarakteri birinchidan, asosiy texnologik jarayonlarni o‘tkazish, iqtisodiy resurslarni bir maromda taqsimlanmaslik va iste’mol qilish, mehnat resurslaridan foydalanishda; ikkinchidan, meva-sabzavot mahsulotlari tayyorlash, transport vositasida tashish, saqlash va sanoat usulida qayta ishlashni tashkil etishda; uchinchidan, meva-sabzavot mahsulotlari bozorida narx shakllanishida; to‘rtinchidan, mehnatga haq to‘lash, moliya va kreditlarni tashkil etishda o‘z ifodasini topadi. Mamlakatda yilning barcha fasllarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarini

². Murodov.CH Hasanov SH.Murodova.M”Agroklaster tashkil etishning nazariy asoslari”Iqtisod va moliya”2014

bir xilda ushlab turish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga imtiyozli kreditlar berish, oziq-ovqat markazlarini tashkil etish, muntazam ravishda kooperativ a'zolarining biznesni amalga oshirishlarida manfaatlari va huquqlarini himoya qilish maqsadida, treninglar o'tkazib turish lozim. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlarini tavsiya etib, ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirish va qishloq aholisining daromadlarini oshirishga qaratilgan fermerlarning biznes va turli takliflarini qo'llab-quvvatlab, har xil moliyaviy xizmatlar va boshqalarni ko'rsatish borasidagi bozor tamoyillariga mos mexanizmlardan O'zbekistonning sharoitiga xos jihatlari respublika fermerlar kengashi tomonidan foydalanish, respublika va hududlar darajasida dehqonlarning nodavlat tashkilotini shakllantirishda foydalanish mumkin. Federatsiya fermer xo'jaliklarini innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashda ko'rsatayotgan amaliy yordami borasida moliyaviy, tashkiliy agroklastarlarni tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solish hamda qo'llab-quvvatlashda davlat bilan o'zaro hamjihatlikdagi faoliyatidan foydalanish, buning uchun esa Respublika fermerlar kengashi faoliyatini, Savdo-sanoat palatasi va boshqa nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilishi hamda davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat vakilliklari bilan mustahkam aloqa o'rnatishlari talab etiladi. Federatsiya ko'magida tashkil etilgan mahalliy Janubiy Koreya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanadigan Xanora taqsimot markazining ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloq hududlarida tayyorlov omborlari tashkil etish, fermerlarni oziq-ovqat talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'rgatish, mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini fermerlardan avvaldan tuzilgan shartnoma asosida sotib olib, ularni sifati, ko'rinishi, hajmi bo'yicha ajratib, turli og'irliklarda qadoqlab, markazning o'zida chakana savdoga chiqarib sotish hamda yirik yoki boshqa supermarketlarga ularning talablariga ko'ra, ulgurji holatda yetkazib berish, yosh avlodga milliy mahsulotlarga nisbatan qiziqishini oshirishda trening darslarini uyushtirish, qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlari tajribalarini qo'llash.

Jaxon adabiyotlarida e'tirof etilishicha, AQSh, Kanada, Shvetsiya, Daniya, Yaponiyada qishloq xo'jalik mahsulotlarini oilaviy fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Ispaniya, Portugaliya, Daniyada fermer xo'jaliklar kooperativ xarakatlanadi. Finlandiyada kooperatsiya yaxshi rivojlangan bo'lib, fermer xo'jaliklari faoliyatini olib borishga yordam beradi. Polshada mayda fermerchilik xarakati yo'lga qo'yilgan bo'lib, tor ixtisoslashuvga asoslangan. Daniyada konsultatsiya markazlari faoliyati rivojlangan bo'lib, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatadi Konsultatsiya xizmatini 10 foizini davlat, 90 foizini fermer xo'jaligi moliyalashtiradi. Xulosa va takliflar Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – mintaqalarda joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iboratdir. O'zbekistonda agroklastarlarni barpo etish, avvalambor, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarining davlat tomonidan shakllantirilishi darkor.

Ushbu yo'nalishda birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Agroklastarlarni tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi. Ikkinchidan, agroklastarlar uchun qo'shimcha infratuzilma ob'ektlari ya'ni agroturizm, mehmonxona tashkil etish, uchinchidan, agroklastarlar faoliyatini o'rganish bo'yicha monitoring olib borish, to'rtinchidan, respublikada agroklastarlar tashkil etish bo'yicha ishchi guruhini tuzish va ularning vazifalarini belgilab olish lozim

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Настин А.А. "Формирование агропромышленного кластера в регионе", 2011
2. Murodov.CH Hasanov SH.Murodova.M"Agroklastar tashkil etishning nazariy asoslari"Iqtisod va moliya"2014
3. Andijon viloyati davlat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.2017-2021 yillar
4. Jo'raev T., Hamidov M. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarinig rivojlanishi va ularning qishloq xo'jaligi taraqqiyotida tutgan o'rni. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnali, №2, 2019 y.
5. Murodova M.CH. Agroklastarlarni tashkil etishda janubiy koreya tajribasidan foydalanishning yo'nalishlari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019-yil
6. Murodov CH., Hasanov SH., G'aniev I. Fzbekiston qishloq xo'jaligida qayta ishlashni rivojlantirishda agroklastarlarni yaratishdagi dastlabki qadamlar.// "O'zbekiston agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish" mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami, TDIU, 2014 yil 30 aprel

Mualliflar haqida malumot

- 1.Yuldasheva Xafizaxon Abduraxim qizi. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. Iqtisodiyot kafedrasi assistenti, telefon +998-90-755-25-60 E-mail hafizaxonyuldasheva95@gmail.com
2. Ro'ziyev Qo'shaqboy Hasanboy o'g'li. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti Raqamli iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 2 bosqich talabasi, telefon +998-90-210-44-10.

Информация об авторах

1. Юлдашева – дочь Хафизахана Абдурахима. Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий. Ассистент кафедры экономики, телефон +998-90-755-25-60 E-mail hafizaxonyuldasheva95@gmail.com
2. Розиев — сын Кошақбой Хасанбой. Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий. Факультет АПК и цифровой экономики, студент 2 курса специальности «Цифровая экономика», телефон +998-90-210-44-10.

Information about the authors

1. Yuldasheva is the daughter of Hafizakhan Abdurakhim. Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. Assistant of the Department of Economics, phone +998-90-755-25-60 E-mail hafizaxonyuldasheva95@gmail.com.
2. Roziyev is the son of Koshaqboy Hasanboy. Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. Faculty of Agribusiness and Digital Economy, 2nd stage student of Digital Economy, phone +998-90-210-44-10.